**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING**
**BUYRUG‘I**

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi 406-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida**

Umumiy o‘rta ta’lim sohasida bir-birini takrorlovchi samarasiz xarajatlarni maqbullashtirish hamda Davlat budjeti hisobidan ajratilayotgan mablag‘lardan samarali va oqilona foydalanishni ta’minlash maqsadida **buyuraman**

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi 406-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga ilovaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. Mazkur buyruq Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi bilan kelishilgan.

3. Mazkur buyruq imzolangan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Vazir** **X. Umarova**

Toshkent sh.,
2024-yil “30”-avgust,
288-son.

***Kelishilgan:***

**Iqtisodiyot va moliya vaziri** **D. Kuchkarov**

2024-yil “30”-avgust

**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vaziri** **B. Musaev**

2024-yil “30”-avgust

O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining
2024-yil 30-avgustdagi
288-sonli buyrug‘iga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2019-yil 28-dekabrdagi 406-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimidagi umumta’lim muassasalari boshqaruv, texnik, xizmat ko‘rsatuvchi va o‘quv-yordamchi xodimlarining namunaviy shtatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar**

1. 1-banddagi jadvalda:

a) 8-pozitsiyasi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 8 | Kutubxona mudiri | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |

”;

b) 9-pozitsiya chiqarib tashlansin.

2. 2-banddagi jadvalda:

a) 6-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 6 | Kutubxona mudiri | 1 | 1 | 1 | 1 |

”;

b) 7-pozitsiya chiqarib tashlansin.

3. 3-banddagi jadvalning 12-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

4. 4-banddagi jadvalda:

a) 11-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 11 | Kutubxona mudiri | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |

”;

b) 12-pozitsiya chiqarib tashlansin.

5. 1-ilovada:

a) 4-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“4. Psixolog lavozimi o‘quvchilar sonidan kelib chiqib, quyidagi miqdorlarda kiritiladi:

1500 nafargacha bo‘lganda 1,0 birlikdan;

1500 nafar va undan ortiq bo‘lganda 2,0 birlikdan.”;

b) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Laboratoriya xonasi mavjud bo‘lganda fizika yoki kimyo fani o‘qituvchisidan biriga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 50 foizi miqdorida har oylik qo‘shimcha haq to‘lanadi.”.

6. 2-ilovada:

a) 2-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“2. Psixolog lavozimi o‘quvchilar sonidan kelib chiqib, quyidagi miqdorlarda kiritiladi:

1500 nafargacha bo‘lganda 1,0 birlikdan;

1500 nafar va undan ortiq bo‘lganda 2,0 birlikdan.”.

b) 8-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“8. Laboratoriya xonasi mavjud bo‘lganda fizika yoki kimyo fani o‘qituvchisidan biriga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 50 foizi miqdorida har oylik qo‘shimcha haq to‘lanadi.”.

7. 3-ilovada:

a) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Laboratoriya xonasi mavjud bo‘lganda fizika yoki kimyo fani o‘qituvchisidan biriga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 50 foizi miqdorida har oylik qo‘shimcha haq to‘lanadi.”.

8. 4-ilovada:

a) 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Psixolog lavozimi o‘quvchilar sonidan kelib chiqib, quyidagi miqdorlarda kiritiladi:

1500 nafargacha bo‘lganda 1,0 birlikdan;

1500 nafar va undan ortiq bo‘lganda 2,0 birlikdan.”;

b) 7-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Laboratoriya xonasi mavjud bo‘lganda fizika yoki kimyo fani o‘qituvchisidan biriga mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorining 50 foizi miqdorida har oylik qo‘shimcha haq to‘lanadi.”.